

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, 2021- yilning yanvar–martida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rirlarda – YaHM ) hajmi joriy narxlarda 5 740,9 mlrd. so`mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda o`zgarishsiz qoldi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 111,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 4,5 % ga yetdi.



### Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
I. YaHM		5 151,4	5 740,9	100,0

shu jumladan:

	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	4 848,7	5 512,5	100,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	302,7	228,4	96,8
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>4 848,7</b>	<b>5 512,5</b>	<b>100,2</b>
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 249,8	1 527,9	103,5
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>1 660,0</b>	<b>1 777,2</b>	<b>94,3</b>
	sanoat	1 229,7	1 219,8	87,1
	qurilish	430,3	557,4	114,9

		<i>Mird. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
<b>Xizmatlar</b>		<b>1 938,9</b>	<b>2 207,4</b>	<b>103,0</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	499,4	580,1	103,8
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	366,7	428,0	104,3
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 072,8	1 199,3	102,2

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 2 944,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko`rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 % ga kamaygan.



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 27,7 % ni, sanoat tarmog'i 22,1 % ni, qurilish 10,1 % ni va xizmatlar sohasi 40,1 % ni tashkil qildi.




**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

		<b>2020-yil</b>	<b>2021-yil</b>
<b>I. YaHM, jami</b>		<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	94,1	96,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	5,9	4,0
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>		<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	<b>25,8</b>	<b>27,7</b>
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	<b>34,3</b>	<b>32,2</b>
	sanoat	25,4	22,1
	qurilish	8,9	10,1
<b>Xizmatlar</b>		<b>39,9</b>	<b>40,1</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10,3	10,5
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,6	7,8
	boshqa xizmat tarmoqlari	22,0	21,8




## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2020- yil





2021- yil




YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,5 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 27,7 %), sanoatda – 87,1 % (22,1 %), qurilishda – 114,9 % (10,1 %), xizmatlar sohasida – 103,0 % ni (40,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 103,8 % (10,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 104,3 % (7,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,2 % dan (21,8 %) iborat bo`ldi.



**Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**




YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,9 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 1,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,2 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,8 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,1 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 2,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning 0,19 f.p. ga kamayishi hisobiga YaHM 0,01 f.p ga kamaydi.




2021- yil yanvar-martda YaHM deflyatori indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 111,5 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'iida – 118,1 va sanoatdada – 113,8 % qayd etildi.



### Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



### Yanvar-mart oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 66,4 %ni tashkil qildi (2020- yil yanvar-martida – 64,1 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi